Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 5 (2026) Published May 31, 2026

FOUNDATIONS OF THE USE AND POETIC FUNCTIONS OF PARALLELISM IN WRITTEN LITERATURE

Niyazmetova Shakhlo Adamboyevna
Urgench RANCH Technology University Lecturer, Department of Uzbek Language and Literature
shahlosherxonbek88@gmail.com

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations and poetic functions of parallelism in Uzbek written literature. During the research, the concepts of parallelism and "mutobiqa" from classical poetics are comparatively examined, highlighting their functional relationships with poetic devices such as tamsili tasvir, mazhabi kalom, and tarse. The findings demonstrate the rhythmic-syntactic and psychological significance of parallelism in literary texts, providing valuable insights for the development of Uzbek literary criticism and terminology.

Keywords

parallelism, mutobiqa, tamsili tasvir, mazhabi kalom, tarse, poetic function, syntactic repetition, rhythm and melody.

YOZMA ADABIYOTDA PARALLELIZM SAN’ATINING QO‘LLANISH ASOSLARI VA POETIK VAZIFALARI

Niyazmetova Shaxlo Adamboyevna
Urganch RANCH texnologiya universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi
shahlosherxonbek88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek yozma adabiyotida parallelizm san’atining qo‘llanish asoslari va poetik vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda parallelizm va mumtoz poetikadagi mutobiqa tushunchalari o‘zaro qiyoslanib, ularning tamsili tasvir, mazhabi kalom hamda tarse’ kabi she’riy san’atlar bilan genetik va funksional aloqadorligi ochib berilgan. Izlanish natijalari parallelizmning badiiy matnda ritmik-sintaktik hamda mantiqiy-psixologik vazifalarni bajarishini ko‘rsatib, o‘zbek adabiyotshunosligi va terminologiyasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: parallelizm, mutobiqa, tamsili tasvir, mazhabi kalom, tarse’, poetik vazifa, sintaktik takror, ritm va melodika.

ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ПОЭТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ПАРАЛЛЕЛИЗМА В ПИСЬМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Ниязметова Шахло Адамбоевна
Ургенчский технологический университет RANCH Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы
shahlosherxonbek88@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы применения и поэтические функции параллелизма в узбекской письменной литературе. В ходе исследования сопоставляются понятия параллелизма и терминологической категории «мутобика» классической поэтики, а также выявляется их связь с такими поэтическими приемами, как тамсили тасвир, мазхаби калом и тарсе. Полученные результаты раскрывают ритмико-синтаксическую и психологическую роль параллелизма в художественном тексте и имеют важное значение для развития узбекского литературоведения и терминологии.

Ключевые слова: параллелизм, мутобика, тамсили тасвир, мазхаби калом, тарсе, поэтическая функция, синтаксический повтор, ритм и мелодика.

Kirish

Parallelizm shakl va mazmun jihatidan bir-birini tarkrorlayotgan ikki yoki undan ortiq hodisa, holat yoxud narsaning obraz sifatida yonma-yon qo‘yilishi orqali fikrni poetik ifodalash usulidir. Bunda yonma-yon qo‘yilayotgan hodisa, holat, narsa obrazi o‘zaro qiyoslanishi, bir-biriga o‘xshatilishi yoki qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin.

Parallelizm badiiy usul bo‘lib, adabiyotda malakali va samarali matn yaratishda keng qo‘llaniladi. Bu usulda bir necha grammatik yoki sintaktik idoralarni, ya’ni jumla tuzilmalarini bir xil shaklda ko‘paytirish yoki takrorlash orqali ifoda etishadi. Bu badiiy ifodaning ritmikligini, melodikligini oshiradi va o‘quvchiga estetik zavq beradi.

Parallelizm grekcha parallelos – yonma-yon boruvchi so‘zidan olingan bo‘lib, uni she’riyat poetikasiga daxldor atama sifatida birinchi marta Robert Laut 1778-yilda o‘z

tarjimasida chop ettirgan “Iso payg‘ambar asarlari” kitobiga yozgan so‘z boshisida qo‘llagan.[1]

Shamsi Qaysi Roziy mutobiqaning lug‘aviy ma’nosini narsalarning o‘zaro tenglanishi deb izohlab, buni ot yurganda tuyoqlarining oldingisi o‘rniga keyingisining baravar almashib tushishi misolida ifodalaydi.[2] Atoullo Husayniy mutobiqani “tiboq”, “tatbiq”, “tazod” va “takofo‘” ham deydilar deb ko‘rsatib, “mutobiqa” va “tiboq”ning lug‘aviy ma’nosi – ikki narsaning muvofiqlanishi, “takofo‘” – ikki narsaning bir-biri bilan teng kelishi, “tatbiq” – ikki muqobil narsani qo‘shish, muvofiqlash, “tazod”ning lug‘aviy ma’nosi – bir-biri bilan dushmanlik qilish ekanligini ta’kidlaydi. U ba’zilar mutobiqaning besh qismdan iborat ekanligini aytishini bildirib, o‘zi uning to‘rt qismligini e’tirof etadi. Bular: taqobili tazod, taqobili tazoif, taqobili adam va mulka, taqobili ezob va salb, (beshinchisi – taqobili taonid).[3]

Ko‘rinyaptiki, parallelizm va mutobiqa atamalari mohiyatan bir xil hodisaning nomlaridir. Shu nuqtai nazardan bemalol ularni o‘zaro sinonim holda qo‘llash mumkin. Qolaversa, hozirgi kunda ruscha-internasional atamalarni o‘zbekchalashtirib qo‘llash ehtiyoji tug‘ilganligi o‘zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligida ham bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu asli grekcha so‘zdan olingan “parallelizm” atamasi uchun ham xosdir. O‘zbek adabiyotshunosligida “parallelizm” atamasi shu kungacha “mutobiqa” termini bilan almashlab qo‘llanib kelingani ko‘rinadi, biroq bu doimiy hol emas. Zotan, Vahob Rahmonov: “Mutobiqani parallelizm deb atash mumkin. Mutobiqa asli arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi: muvofiq, o‘xshash, ikki narsani o‘zaro muvofiq keltirish demakdir”, - deb yozgan edi va mutobiqalarning tematik yoki mantiqiy, ritmik, sintaktik xillari mavjudligini ko‘rsatgan edi.[4] Biroq parallelizm atamasi keng ma’noda qo‘llanishi, she’riy san’at sifatida poetik asarlarda turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi, har bir ko‘rinishida o‘ziga xos tomonlarini alohida holda aks ettirishi tufayli uni yagona “mutobiqa” atamasi bilan atash qiyinroq. Yoki buni V.Rahmonovdek “sintaktik mutobiqa”, “ritmik mutobiqa”, “tematik mutobiqa” tarzida

[1] Якобсон Р.О., Работы по поэтике. Москва, 1987,с.99-100.
[2] Шамси Қайси Розй.Ал-Мўъчам: Душанбе: Адиб, 1991, сах.277-278.
[3] Атоулло Ҳусайнй. Бадоеъ – ус – саноеъ. Душанбе: нашриёти “Ирфон”,1974, сах.161-164.
[4] Раҳмонов Ваҳоб. Шеър санъатлари. Ленинобод, 1972, 47-49-бетлар.

yuritaversak, masala baribir “ikki o‘n besh – bir o‘ttiz” qabilida yechilaveradi. Shunday ekan, balki mutobiqaning Atoullo Husayniy ko‘rsatgan turlarini parallelizm turlarining atamalari o‘rniga tatbiq qilish ma’quldir. Mumtoz poeziyada parallelizmning psixologik parallelizm ko‘rinishi “tamsili tasvir” san’atiga, umuman obrazli parallelizm san’atining mohiyati “mazhabi kalom” san’atining mohiyatiga teng keladi. Ritmik-sintaktik parallelizm she’riy misralarning o‘zaro hamvaznligi va ohangdoshligini keltirib chiqarishi jihatidan tarse’ san’atini eslatadi. Shunday ekan, ehtimol parallelizm san’ati, umuman, keng ma’noda mutobiqa san’ati deb olinsa, tamsili tasvir, mazhabi kalom, tarse’ san’atlarini ham uning bir ko‘rinishlari sifatida qayd qilish mumkindir. Harqalay, mutobiqa san’atining mumtoz yozma adabiyot bilan bog‘liq tomonlarini, yozma adabiyotdagi boshqa san’atlar bilan o‘zaro munosabatini, o‘xshash va farqli tomonlarini ochib berish adabiyotshunoslarimiz oldida turgan mas’uliyatli vazifalardan biridir.

Parallelizm badiiy ifoda usullarining alohida tipi bo‘lib, adabiyot va folklorda keng qo‘llanadi. Folklordagi parallelizm an’anaviyligi bilan diqqatni ko‘proq jalb etadi.

Parallelizmlar, asosan, xalq poeziyasiga xos usul bo‘lib, keyinchalik yozma adabiyotga o‘tgan.

Parallelizmlarning janrlararo tafovuti har bir janrning o‘ziga xos xususiyatiga, tasvir obyektiga bog‘liqdir.

Parallelizm o‘z tabiatiga ega mukammal, alohida bir tizimdir. U bir necha tizimchalarni o‘ziga birlashtirgan holda yaxlitlik kasb etgan. Matnda parallelizmlarning funksional bir butunligi, kompozision-badiiy jihatdan yaxlitlikka egaligi ravshan ko‘rinadi. Ya’ni, xalq lirik qo‘shiqlarida parallelizmlar xilma-xil turlarga va ichki ko‘rinishlarga ega. O‘z navbatida ularning har biri o‘ziga xos muhim belgilarga va o‘z xususiy maqsadiga ham ega. Bu hol esa poetik ifodaga obrazlilik va joziba baxsh etadi. Zotan, bitta she’rda parallelizmning bir necha turlari uchrashi mumkin. Buning sababi shundaki, har qanday parallelizm ma’lum mantiqni ilgari surar ekan, albatta, shu mantiqqa mos sintaktik qurilishga va ohangga ham ega bo‘ladi:

Toqqa yo qor tushibdi,
Ko‘nglimga yor tushibdi.
Ikkalamiz bir ko‘ylak –

Yoqasi tor tushibdi.[5]

To‘rtlikda ham tematik-psixologik parallelizm, ham ritmik-sintaktik parallelizm mavjud. To‘rtlikdagi tabiat tasviri keyingi misradagi fikrni ta’kidlab, uning ta’sirchanligini oshirib kelmoqda. Vazni ham matn mazmunining ifodasiga mos. Toqqa qor tushishi bilan ko‘ngilga yorning tushishi iboralari qo‘shiqqa xos obrazli parallelizmdirki, bu to‘rtlikning mazmundorligini ham, ohangdorligini ham kuchaytirib turibdi. She’rdagi “qor tushibdi, yor tushibdi, tor tushibdi” – motiv va ritmik jihatdan teng hamda o‘xshash sintaktik birliklar bo‘lib, shu asosda ritmik-sintaktik parallelizm yuzaga kelgan.

Ritmik-sintaktik parallelizm turkiy xalqlar she’riyatining tadqiqotchilari T.Kovalskiy, V.M.Jirmunskiy va o‘zbek folklorshunosi B.Sarimsoqovlar ta’kidlaganlaridek, hamisha she’riy asarlar asosida yotadi.[6] Chunki qo‘shiqqa xos musiqiylik faqat ritmik-sintaktik parallelizmlar natijasida yuzaga chiqadi. She’r vazni, undagi turoqlar va hijolar tengligi ham ritmik-sintaktik parallelizm orqali aniqlanadi. Ammo hozirgi zamon she’riyati insoniyatning badiiy tafakkur darajasining yuksak shakllanish pog‘onasida rivojlanar ekan, unda ritmik-sintaktik parallelizmlar bilan birga obrazli parallelizmlar ham keng qo‘llanmoqda va insoniyat badiiy tafakkur taraqqiyotining shu kungacha qo‘lga kiritgan yutuqlarini davrimiz she’riyatida namoyon qilmoqda.

Parallelizmlarning mantiqiy parallelizm turi mohiyati va vazifasi nuqtayi nazaridan sintaktik sinonimiya hodisasiga yaqin turadi. Chunki u orqali mazmunan bir xil ikki tushuncha birgalikda keltirib ifodalanadi. Bunda qiyoslanayotgan yoki qarama-qarshi qo‘yilayotgan nutq bo‘laklarining o‘zaro mos tushishi bilan birga ularning mazmuni ham muvoziy kelishi e’tiborga olinadi. Biroq parallelizmlar ma’no jihatidan sinonimiya tushunchasiga qaraganda kengroq va chuqurroqdir. Buning sababi shundaki, har qanday sinonim so‘z yoki gap parallel holda kelib, parallelizm hodisasi sifatida e’tirof etilishi mumkin. Biroq har qanday parallelizm hodisasi sinonimiyaga daxldor

[5] Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1959, 250-бет.
[6] Т.Ковальский фикри ҳақида ҳам В.М.Жирмунский асарига қаранг: Жирмунский В.М. Ритмико-синтактический параллелизм как основа древнетюркского народного эпического стиха // Вопросы языкознания. М., 1964,№4, с. 3-24; Саримсоыов Б. Щзбек адабиётида сажъ. Тошкент: «Фан», 1978, 20-38-бетлар.

bo‘la olmaydi. Chunki paralleizmlar turlicha bo‘lib, ularning har qaysinisi har xil yo‘sinda vujudga kelgan holda amal qiladi.

Turkiy xalqlar she’rining paydo bo‘lishida ritmik-sintaktik parallelizmlar muhim ahamiyat kasb etgan. Buni polyak olimi T.Kovalskiy, sho‘ro olimlari V.M.Jirmunskiy, I.V.Stebleva, X.Usmonov va B.Sarimsoqovlar o‘z tadqiqotlarida alohida ta’kidlaydilar. Polyak olimi T.Kovalskiy turkiy xalqlar she’riyati takror va parallelizm yordamida kelib chiqqan bo‘lib, ular she’rda hijolar sonini tenglashtiradi hamda turli so‘z qofiyalari hosil qiladi deb qaragan. [7] T.Kovalskiyning shu fikrini rivojlantirgan akademik V.M.Jirmunskiy e’tiroficha, turkiy xalqlar she’riyatining asosida faqat ritmik-sintaktik parallelizmlar yotadi va uning natijasida so‘z takrorlari, saj’, qofiya kabilar yuzaga chiqadi. [8] I.V.Stebleva o‘zining turk poeziyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida alliteratsiyani ritmik-sintaktik parallelizmlarni vujudga keltiruvchi muhim vosita deb qaraydi.[9] O‘zbek adabiyotida saj’ san’atini maromiga yetkazib o‘rgangan B.Sarimsoqov esa V.M.Jirmunskiyning turkiy xalqlar she’riyati asosida ritmik-sintaktik parallelizmlar yotishi xususidagi fikriga qo‘shilgan holda, uning saj’, qofiya va turli so‘z takrorlarini ritmik-sintaktik parallelizmlarning natijasi sifatida qarashiga qo‘shilmaydi. O‘z navbatida, B.Sarimsoqov ritmik-sintaktik parallelizm saj’, takror va alliteratsiya tufayli yuzaga kelganligini qayd qiladi.[10]

She’rdagi **semantik kuchaytirish** so‘zlar va obrazlarning chuqur ma’nosini oshirish, ularga ko‘p qatlamli ma’no berish; **obraz uyg‘unligi** esa she’rning turli obrazlari (metaforalar, timsollar) bir-birini to‘ldirishi, butun she’rga yagona badiiy-emotsional ta’sirni ta’minlashi, ya’ni barcha elementlar **mazmuniy va stilistik uyg‘unlik** hosil qilib, obrazlarni bir-birini kuchaytirishi demakdir. Bular she’rning emotsional ta’sirini kuchaytiradi, yuzaki ma’nodan chuqur falsafiy yoki hissiy ma’noga olib chiqadi, o‘quvchida bir butunlik hissini uyg‘otadi. She’riyatda parallelizm ko‘pincha obrazlarning o‘zaro uyg‘unligi, muqoyasa yoki ziddiyat asosida quriladi.

---

[7] Т.Ковальский асари ҳақида қаранг: Линин А.Н. К вопросам формального изучении поэзии турецких народов. Баку, 1926, с. 150-152. –Бу ҳақда қаранг: Б.Саримсоқов. Ўзбек адабиётида сажъ. Тошкент: “Фан”, 1978,20-21-бетлар.

[8]Жирмунский В.М. Ритмико-синтактический параллелизм как основа древнетюркского народного эпического стиха. –“Вопросы языкознание”, М.,1964, №4, с.3-24.

[9] Стеблева И.В. Поэзия тюрков YI-YIII веков. Москва: «Наука», 1965, с.12-38.

[10] Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. Тошкент: “Фан” нашриёти, 1978, 21-39-бетлар.

Zamonaviy adabiyotimizning ko‘zga ko‘ringan porloq yulduzlaridan yana biri Zebo Mirzodir. Shoiraning “Nur kukunlari” kitobidan olingan “Layloga…” she’rida ham yulduz bilan bog‘liq go‘zal badiiy ifoda mavjud.

Parchagina osmonida parcha bulut,
Yulduzchalar yig‘lab kelib, yig‘lab botar..
Kipriklari yuzlariga soya solib
Laylogina yer tagida uxlab yotar.[11]

Ma’lumki, qadim ajdodlarimizning mifologik tasavvurlarida “*yulduz-odamning joni*”, degan qarashlar bo‘lgan. “Navbahor tumanida yashovchi Lola Jumayevaning aytishicha, ko‘kda yulduz uchsa keksalarimiz “*Essiz chala taqdir bo‘ldi-da*”,- deya yuzlariga fotiha tortishgan.

Chunki “yulduz uchishi” yoki “yulduz botishi” kishining o‘limi , taqdiri chala bo‘lganidan nishona.[12]

Ya’ni bunda Layloning a’zasiga yulduzlarning yig‘lashi, olamning inson botiniga hamohang ekanligida bilinadi. “Kipriklari yuzlariga soya solgan qiz”, deya ta’riflanishida uning naqadar go‘zal, sohibjamol va hur qiz ekanlidan darak beradi.

Xulosa

Parallelizmlarning qo‘llanishi o‘zbek she’rlarining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, ular turlicha ko‘rinishlarga ega. Parallelizmlarning turlarini va ularga xos xususiyatlarni aniqlash, o‘z navbatida, she’rlarning tabiatini, badiiyatini, ularning taraqqiyot yo‘llarini, tarbiyaviy-estetik ahamiyatini bilib olish uchun ham muhimdir.

Parallelizm san’ati she’riyatda ko‘proq **tasviriylik, emotsional chuqurlik, musiqiylik**ni ta’minlaydi. Nasrda esa u **mazmuniy kontrastlar**, **voqealar oralig‘idagi mantiqiy bog‘liqlik**, **qahramonlar ruhiy holatining tahlili** orqali xizmat qiladi. Har ikki janrda ham bu san’at vositasi muallifning badiiy maqsadini yanada aniqroq va estetik jihatdan boy ifodalashga imkon beradi.

Parallelizm san’ati yozma adabiyotda qadimdan to zamonaviy bosqichgacha o‘zining badiiy-estetik imkoniyatlarini boyitib kelgan. Har bir davr, maktab va shoir

[11] Зебо Мирзо. Нур кукунлари. Тошкент: “Янги аср авлоди” нашриёти. 2004.- Б.35.
[12] Жўраев.М. “Юлдуз учиши билан боғлиқ мифологик қарашлар” мақола. О’збекистон сан’ати ва адабиёти газетаси. Тошкент: 2-сон,1996.-Б. 39.

ijodida bu vosita turlicha ifodalansa-da, uning asosiy vazifasi badiiy fikrni kuchaytirish, obrazni chuqurlashtirish va musiqiylikni ta’minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Якобсон Р.О., Работы по поэтике. Москва, 1987.
2. Шамси Қайси Розй.Ал-Мўъчам: Душанбе: Адиб, 1991.
3. Атоулло Ҳусайнй. Бадоеъ – ус – саноеъ. Душанбе: нашриёти “Ирфон”,1974.
4. Раҳмонов Ваҳоб. Шеър санъатлари. Ленинобод, 1972.
5. Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1959